

YAYRA ABDULLAYEVA

Fotima Ismoilova

O‘zDSMI “San’atshunoslik: sahna va ekran san’ati dramaturgiyasi” 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuksak iste’dodli va el suygan aktrisa Yayra Abdullayevaning san’atga qanday kirib kelganligi, turmush tarzi, teatr va kinoda gavdalantirgan bir necha o‘nlab rollari, unga ishonib topshirilgan rol ustida qanday ishlashi haqida ma’lumot keltirib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: bosh qahramon, Yelizaveta Petrosova, Umar Abdullayev, oila, teatr, sotuvchi ayol, “Boy ila xizmatchi”, orden, katta mahorat.

Yayra Abdullayeva...Ushbu aktrisaning bilmaydigan, uning ijrosini hech bo‘lmasa, bir marta ko‘rmagan o‘zbek tomoshabini topilmasa kerak. Zero, 14 yoshidan boshlab tomoshabin qarshisida o‘z iste’dodini namoyon eta boshlagan ushbu aktrisa mana qariyb yetmish yildirki, uni suyib, qadrlab kelayotgan xalqiga sadoqat bilan xizmat qilib kelyapti. Nafaqat sahna san’atida, shuningdek, kino, televideniya ijro etgan rollari bilan kunda ijodiy biografiyasini yangi obrazlar bilan to‘ldirib kelayotgan ushbu aktrisa ana shu man’oda el ardog‘ida.

Yayra Abdullayeva mamlakatimizning eng keksa va mo‘tabar teatr dargohi – O‘zbek davlat akademik drama teatri sahnasiga o‘tgan asrning 40-yillari oxirida, Toshkentda tashkil etilgan Teatr va rassomchilik san’ati institutini birinchi bitiruvchi qaldirg‘och talabalari qatorida – birinchi galda uning eng zabardast rejissorlari qatoridan o‘rin olgan rejissor Toshxo‘ja Xo‘jayev, iste’dodli va xalq suygan aktyor va aktrisalar Zikir Muhammadjonov, Erkli Malikaboyeva, Iroda Aliyevalar bilan birga kirib keldi. Aktrisaning Shukur Burxonov, Olim Xo‘jayev, Sora Eshonto‘rayeva, Nabi Rahimovlar faoliyat ko‘rsatayotgan teatr dargohiga qabul qilingani, unga nafaqat katta ma’suliyat yuklar, balki buni u dildan his qilardi. Shu bilan sahnada ijod etish imkoniyati Yayraning hayajonini oshirib yuborgandi. Lekin ayni mana shu hayajon unga hissiyotlarni anglash va boshqara olishni ham teran anglashga undadi.

Aktrisaning ijodiy yo‘li sarhisob etilsa, unda ijro etilgan obrazlar nafaqat son jihatdan ko‘p, shu bilan birga salmog‘i bilan ham e’tiborni tortadi. Aksari bosh qahramonlar...Ular orasida qahramonona obrazlar bilan birga, xarakterli, kechinmalarga boy lirik obrazlar ham talaygina. Ijro etilgan rollar ro‘yxatiga e’tibor berilsa, aktrisa turli mavzu va janrlardagi asarlarda birdek mahorat ko‘rsatgani ham ko‘zga tashlanadi. Xususan, uning ijodiy biografiyasida tarixiy asarlar bilan birga zamonaviy mavzulardagi, shuningdek, chet el dramaturgiyasining durdona asarlaridagi ko‘plab rollarni ko‘rish mumkin.

Yayra Abdullayevaning teatr sahnasida yaratgan obrazlari aslo bir-biriga o'xshamaydi. Bularni ko'z oldingizga keltirsangiz, har bir obrazda aktrisaning tamomila yangi qiyofaga kirganining guvohi bo'lasiz. Yayra Abdullayeva har bir rolida go'yo qaytadan dunyoga keladi. U yaratgan obrazining har biridan o'zidan xos xususiyatlarni izlaydi, tomoshabin uchun ahamiyatli, zamondoshini qiziqtiradigan jihatlarni topib, sahnada gavdalantirishda intiladi. Inson taqdiri, uning xarakteri doim aktrisa diqqat-markazida turadi.

Aktrisa obraz talqiniga kirishar ekan, rolning xususiyatiga qarab, unga ijodiy yondashadi. Agar rol aktrisaning ichki "men"i, uning his-tuyg'ulariga yaqin bo'lsa, ba'zan o'sha biz ajratib ko'rsatayotgan hayajon tafakkurdan, fikrdan ustun keladi. Va bu kabi rollari tomoshabinni hayratga soladi. Shu o'rinda yana bir jihat muhim. Aktrisaning hayajoni ham "yuqumli". U nafaqat tomoshabinni o'ziga mahliyo etadi, balki shu bilan birga uning yonidagi hamkasblariga ham yuqadi. Bu esa nafaqat katta iste'dod, shu bilan birga juda katta va mashaqqatli ijodiy mehnat mahsuli. Shu sabab ham teatr munaqqidlari aktrisani fikrlovchi, tahlilga moyil san'atkor, deya tavsiflashadi. Bunga ham undagi tafakkur sabab. Zero, aktrisa qiyofasini yaratayotgan qahramonlarining xarakteri bir tekisda rivojlanishini yoqtirmaydi. To'g'ri, uning ijodi tilga olingani kabi obrazlardan ham holi emas.

Yayra Abdullayeva ijodiy biografiyasiga nazar tashlansa, u ijro etgan qahramonlarning aksari mehnatkash, g'ayratli va eng asosiysi, prinsipial insonlar ekanligi ko'zga tashlanadi. Biroq har qancha ishchan ko'rinishmasin, ayni chog'da ular tortinchoq, kamtar, vazmin va nihoyatda nafis, shu sababli teatr tanqidchilari ularni umumlashtirib aktrisani "lirik sahnalar mohir ustasi" ham deyishadi. Aynan mana shu xislatlari sabab ham aktrisa tomoshabinlar e'tiboriga tushib, ularning diqqatini doim o'ziga jalb etib kelgan bo'lsa, ajabmas.

Aktrisa har xil xarakterdagi va turli hayotiy muammolarga duch kelgan ayolar qiyofalarini yaratar ekan, asosan, yaratayotgan obrazining insoniy jihatlari e'tibor qaratadi. Shu sabab uning qahramonlari ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar garchi ba'zan bu holat xarakter xatti-harakatini belgilasa ham, o'z insoniy burchiga sodiq qoladilar. Natijada aktrisa ijrosida mana shu insoniy xislatlar bo'rttirilib, keyinchalik har bir obrazning o'ziga xos xususiyatga aylanadi. Ular orasida ruhiy kechinmalarga katta e'tiborni ham, fidoyilikni ham, eng muhimi, ko'plab obrazlari xatti-harakatiga kuch beruvchi isyonkorlikni ham ko'rish mumkin.

Yuqoridagilarga esa osonlik bilan erishilmaydi. Buning asosida aktrisaga xos hayotga, qilayotgan ishiga muhabbat va chanqoqlik, qolaversa, tinimsiz mehnat va ijodiy izlanishlar yotadi. Aynan mana shu xislatlar sabab uning ijrosi roldan rolga takomillashib, mukammallashib, obrazlar mohiyatan sayqallanib borgan. Aktyorlik san'ati uchun juda muhim, ya'ni ijodning belgilovchi omili bo'lgan ushbu holatlarni sahna munaqqidlari birdek e'tirof etishlari ham shundan. Bu esa aktrisaning boshlagan

ishini oxiriga yetkazmasdan qo‘ymaslik, yo‘lda hech qachon to‘xtab qolmaslik, balki badiiy ijodiy fantaziyaning kamolotiga turtki beruvchi omillarni izlab topish va ularni simirib, to‘yib sipqorish singari xususiyatlar egasi ekanligidan. Mana shu xislatlar aktrisaning sahnaviy hayoli mahsuli o‘laroq qalbida tug‘ilgan his-tuyg‘ular haqqoniyligiga ham sabab bo‘lgan.

Aktrisa o‘ziga topshirilgan har bir obrazni o‘rganish va o‘zlashtirishga kirishar ekan, ularga xos har bir detalni nazardan qochirmaslikka harakat etadi. Bunda nafaqat faktlar haqqoniyligi, shuningdek, voqealar ishonchligini e‘tibordan chiqarmaslikka intiladi. Qolaversa, aktrisa ularni o‘zining san‘atkor, bir shaxs sifatidagi tasavvuri, qarashlari bilan ham boyitadi. Bularni bajarishda esa unga barcha narsa, xususan, muallifning g‘oyaviy qarashlari, rejissor niyatini aniq tushunishi hamda ijodiy izlanishlari yordam beradi.

Yayra Abdullayeva 1930-yilda Andijonda tavallud topadi. Uning aktrisa bo‘lib yetishishida oilaviy muhit hal qiluvchi o‘rin tutadi. Kichkinaligidan onasi O‘zbekiston xalq artisti Yelizaveta Petrosova, dadasi (Umar Abdullayev, Hamza nomidagi drama teatri artisti) va xolalari – Tamara Xonim va Gavhar Rahimovalarning sahnadagi ijrolarini kuzatib katta bo‘ladi. Kim biladi, shu oilaviy muhit sababmi, yoxud Olloh unga noyob iste’dod berganmidi, Yayra juda yoshligidan san‘atga ishtiyoqi bilan ajralib turardi. Tashqi jihatdan ko‘xlikkina qo‘ng‘iroq, jingalak sochlari, chaqnoq qora ko‘zlari onasiga, yuz tuzilishi, burni, hatto sochining quyugligi otasiga tortgan qizchaning sho‘xliklari, topqirligi kattalarni ham zavqlantirardi. Shunday paytlarda onasidan eshitadigan birgina dashnom “Ha, otangga o‘xshamay ket”. Chunki uning otasi ham xuddi unga o‘xshab ko‘p yolg‘on gapirar ekan. Kichkina qizaloq Tamaraxonim gastrol safariga ketishini poylab turib, u ketgach, uning liboslarini kiyib, turli xil obrazlar yaratar, shu orqali uning san‘atga mehri o‘zgachaligi ifodalanardi. Hattoki, unga qarab turuvchi odam bo‘lmaganligidan doim teatrda kuni o‘tar, ommaviy sahnalarda uni ham olib chiqishar, “Halima”, “Knyaz Igor”, “Farxod va Shirin” kabi spektakllar paytida bo‘lsa, xorning yonida turardi. Ota-onasi teatrda ishlaganligi, bolaligidan san‘atning ichida ulg‘ayganligi bois, Yayra ham shu kasbni tanlaydi.

1944-yil Yayra atigi 14 yoshligida unga qaraydigan odam bo‘lmaganligi uchun, Gavhar xolasi yoshini kattaroq yozdirib, front brigadasi tarkibidagi ayollar ansambliga yuboradi. Yayra butun front bo‘ylab urush yillari harakat qilgan ushbu ansambl tarkibida urushning eng qizigan yerlarigacha bordi. Ikkinchi jahon urushining mashhur generallari Rokosovskiy, Katukov, birinchi o‘zbek generali Sobir Rahimovlarni ko‘rdi. Bolaligidayoq tinch hayotning qadri hamma narsadan ulug‘ ekanligini tushundi. U front ansamlida yurgani bois, maktabdagi o‘qishlari ham qolib ketdi. Urush tugab uyga qaytishganda, tengqurlari yuqori sinflarga o‘tib ketishibdi. Gavdasi kichkina bolalar bilan o‘qishga to‘g‘risi, og‘rindi. Buni birovga aytolmaydi-yu, fe‘lini biladigan yaqinlari uni tushunishadi. Ular sabab Yayra maktabni oliy o‘quv yurti bilan birga bitirdi.

Shunday qilib, Yayra 15 yoshida olti sinf ma'lumoti bilan institutning tayyorlov bo'limiga qabul qilindi. Kunduzi oliygohga, kechqurun ODO qarshisida joylashgan Krilov nomidagi ishchi yoshlar maktabining 7-sinfiga qatnay boshladi. 2,5 yildan so'ng uning qo'liga o'rta ma'lumot haqidagi attestat tegdi. Endi u butun vaqtini va imkoniyatini san'at oliygohida o'tkaza oladi... Darslarning bir qanchasi teatrda olib boriladi. Talabalar ommaviy sahnalarga jalb qilinadi. Yayradagi yorqin tashqi qiyofa, sahnabop joziba, ichki jo'shqinlik, mehnatsevarlik yetakchi ustozlar e'tiborini torta boshladi. 1947-yilda teatrqa taklif oldi. Qobiliyatli Yayra o'zining oliygohda ustozlardan olgan butun mahorati va bilimni diplom spektakllari himoyasida ko'rsatishga harakat qildi. Shu ma'noda, u tomonidan yaratilgan Guli ("Alisher Navoiy", Uyg'un va Izzat Sulton), Sofya ("So'nggilar", M.Gorkiy) obrazlari ustozlari tomonidan ham e'tirof etildi. Lekin katta sahna – katta ma'suliyat va nafaqat ustozlar, shuningdek, tomoshabin oldidagi imtixon...

Ko'z ochib yumguncha oliygohdagi ta'lim ham nihoyasiga yetdi, u oliy ma'lumotli bo'ldi. Yayraga mamlakatning eng katta teatr dargohida ishlash uchun yo'llanma berildi. Yayraning Erkli Malikboyeva, Lola Badalova va Iroda Aliyeva singari o'zining tengqur dugonalari bilan birgalikda katta sahnaga qadam qo'yishi unga katta yordam berdi. Lekin uning yoshi 19 daligi bois, xolalari, onasi uni turmushga berishga oshiqishardi. Xullas, uni bazo'r ko'ndirib harbiy ofitserga turmushga uzatishadi. Ko'p o'tmay, ular Dehqonobodga ish yuzasidan kelishadi. U yerda teatr yo'qligi sababli, Yayra maktabda ona tili va adabiyot fanlaridan dars berishga rozi bo'ladi. Lekin muhabbat orqali qurilmagan bu oila 1,5 yildan so'ng barbod bo'ladi. Oradan yillar o'tgach esa, Mair ismli ozarbayjon rassomiga turmushga chiqadi. Lekin Toshkentda yotoq joyi muammoligi sababli, ular Ozarbayjonga ketishadi. Oradan bir yil o'tib esa, ularga uy berilganligi haqidagi telegramma keladi. Ular qaytib kelishadi, lekin erining ro'yxatdan o'tkazish masalasi ancha qiyinlashadi. Eri xatto Yayraga ham aytmay, o'g'li bilan Bokuga ketvoradigan odat chiqaradi. Shunday qilib, ikkinchi turmushidan ham Yayra ajrashgach, boshqa oila qurmaslikka qaror qiladi va o'zini butunlay ijodga bag'ishlaydi.

U teatrqa kelganida, dastlab Gorkiyning "Meshchanlar" dramasiidagi teshikkulcha sotuvchi ayol roli topshirildi. Ushbu ommaviy sahnadagi ushoqqina obraz aktrisaning katta sahnadagi ilk qadami va ijodiy faoliyatining boshlanishiga turtki berdi. Oradan ko'p o'tmay, Yayraga yozuvchi Tuyg'unning "Hikmat" nomli asaridagi bosh qahramon obrazi topshirildi. Uning partnyori Shukur Burxonov bo'lib, bu aktrisaning dastlabki katta obrazi edi.

Bir necha yildan so'ng esa, u teatrning yetakchi aktrisalari qatoridan o'rin olib ulgurgan, endi teatr repertuaridagi deyarli barcha asarlarda uning o'z o'rnini bor edi. "Qutlug' qon" dagi sodda, quvnoq, ko'ngilchan qizchadan murosasiz, keskin ayolga aylangan, o'z davrining fojiali qahramoni Gulnor, "Momaqaldiraq"dagi o'zi

yashayotgan tuzumning mavjud tartib-qoidalariga bo'ysunmagan, isyonkor Katerina, "Xolisxon"dagi xushfe'l, sevgisiga sadoqatli, biroq g'arazli insonlar tuzog'iga ilinib, qurbon bo'lgan bo'lsa-da, jur'atini yo'qotmagan Xolisxon, "Alisher Navoiy"dagi samimiy va shoirona go'zal qalbli Guli, "Boy ila xizmatchi"dag sevgisi haqqi kurashga bel bog'lagan, sadoqatli Jamila, Robindranat Tagor asari asosidagi "Gang daryosining qizi" spektaklidagi jamiyatning mavjud qonuniyatlari qarshisida ojiz, itoatkorligi sabab o'z o'rnini topishga noqobil Xemnolini...Turli toifa, turli xarakterdagi bu obrazlarning bari unga katta maktab bo'ldi.

"Qutlug' qon"dagi Gulnor obrazi Yayra Abdullayevadan katta mehnat va ijodiy izlanishni, o'ziga xos jasoratni talab etdi. Chunki, Oybekning "Qutlug' qon" romani bosh qahramonlaridan biri bo'lgan Gulnor obrazi XX asr o'zbek adabiyotidagi mukammal yaratilgan obrazlardan biridir. Orzulariga yetolmay fojiali halok bo'lgan, o'z davri muhitining jonli vakili Gulnor obrazi katta ijodiy salohiyatni talab etardi. Teatrdan bu kabi obrazlarni yaratishda katta tajriba to'plangan bo'lsa-da, bu tajribalarni o'zlashtirishning salbiy jihati, ularni takrorlashni keltirib chiqarishida edi. Takrorlash bilan cheklanib qolish esa faqat salbiy taassurot uyg'otishi mumkin edi. Aynan mana shu holatning o'zi aktrisa katta imtixon oldida turganini namoyon etar, qolaversa, Yayraning o'zbek tili va talaffuzidagi mavjud muammolari unga sahnada ancha pand berar, bu sohada hali qilishi kerak bo'lgan ishlar ko'p edi.

Yayra Abdullayevaga katta sahnadagi dastlabki qadamlaridan boshlab turli janrlardagi, katta, o'ziga xos xarakterli qahramonlar obrazlarini yaratish ishonib topshirildi. Aktrisa ham o'ziga bildirilayotgan ishonchni oqlash, kuchli shaxslar talqini ishonarli qilib gavdalantirish niyatida har qanday sharoitda xarakteridagi kuchlilik va qat'iyatni namoyon etishga, ular bilan obrazlarni to'ldirishga intildi. Shu ma'noda aktrisaning dastlabki davr ijodida o'ziga xos o'rin tutadigan rus demokrat yozuvchisi A.N.Ostrovskiyning "Momaqaldiroq" pyesasidagi Katerina obrazi e'tiborli. Haqiqatdan rus dramaturgiyasining ushbu o'ziga xos namunasida ham Yayra Abdullayeva mavjud tuzum tartib-qoidalariga bo'ysunmagan, isyonkor, kurashuvchan qalb egasi obrazini yaratish borasidagi izlanishlarini davom ettirdi. Natijada, Yayra Abdullayeva talqinidagi Katerina nafaqat Kabanovlar xonadoni, shuningdek o'zi yashagan jamiyat uchun "zulmat olamidagi yorug' nur" bo'lib porladi.

Rejissor Mannon Uyg'ur sahnalashtirgan Uyg'un va Izzat Sultonlarning mashhur "Alisher Navoiy" dramasi asosidagi spektaklda Guli obraziga Yayrani kiritgani aktrisaning unchalik qo'rqitib yubormadi. Biroq, tan olish joiz, yosh aktrisaning teatrdagi bu roli Sora Eshonto'rayeva yaratgan Gulidek samimiy, avvalgi talqindan yaxshiroq, undan kutilganidek shirali chiqmadi. Sora Eshonto'rayeva ijrosida Guli bilan Alisher o'rtasidagi munosabatlar nihoyatda go'zal va samimiy aktyorlar tomonidan yuksak darajada talqin topgan bo'lib, bir-biriga intilgan qalblar o'rtasidagi munosabatlarning go'zal namunasi, sevgan qalbning nozik dil izhori ramzi, shu bilan birga nazokatli

harakatlarning ishonarli ifodasi bo'ldi. Yayraning Gulisi yosh, go'zal bo'lishiga qaramay, Soraning obraziga taqlid asosida yuzaga kelgani sabab bo'lsa kerak, badiiy qimmatini unchalik yuqori bo'lmadi. Aktrisa sahnada she'rlarni ifodali o'qib, harakatlarning ularga mos bo'lishiga nechog'liq harakat qilmasin, rolga singib ketmagani sezilardi.

“Xolisxon” spektaklidagi Xolisxon o'zbek dramaturgiyasi uchun yangi obraz. Unda Yayra ayollar huquqini oyoq osti qilgan boyvachchalar muhitida o'sib, ularning yaramas, g'ayriinsoniy urf-odatlarini ko'raverib, toqati qolmagan, erkin muhabbatga intilib, oddiy odamiylik huquqiga erishishni istagan qiz obrazini gavdalantirdi.

“Gang daryosining qizi”da Yayra yaratgan Xemnolini aqlli, bilimdon bo'lish bilan birga nihoyatda itoatkor ham. Xemnolini chuqur va murakkab kechinmalarini aktrisa nozik ifodalab, hind qizining yorqin va to'laqonli obrazini yaratadi. Ko'rinishidan biroz sustkash, yuvosh va kamtarin Xemnolini Yayra gapirganida ovozi juda past jaranglaydi. Uning uyatchan tabiati suhbatdoshiga tik boqishga yo'l bermaydi.

Aktrisa faqatgina jiddiy qiyofalarni yaratish bilan cheklanmaydi, balki qator komil obrazlarda ham o'zini sinab ko'radi. Xususan, Abdulla Qahhorning “Og'riq tishlar” asaridagi qalbi bo'm-bo'sh, qilar ishining tayini yo'q, maishati bilan ovvora Xumorxon, Said Ahmadning “Kuyov” komediyasidagi pardozi-andozni o'rniga qo'yadigan, hatto sigirning yelinini atir sovunda yuvib sog'adigan Jamila, turk yozuvchisi Aziz Nesinning “Jonimni ol, jonginam”dagi Yoshi bir joyga borib qolgan bo'lsa-da, o'ziga yarashmagan darajada tantiq va injiq Siyon obrazlarini yaratish jarayonida aktrisa ushbu toifadagi kimsalar tabiatidagi “nozik” qirralarni ba'zan bo'rttirib, ba'zan noziklashtirib, yangicha qiyofa sifatida kashf etishga intildi.

Bundan tashqari, aktrisa V.Shekspirning “Qirol Lir” tragediyasidagi Regana, F.Shillerning “Mariya Styuard” tragediyasidagi Mariya, L.Sheyninning “Mudhish aybnoma” dramasida Larisa, A.Safronovning “Mashaqqatli yo'l” pyesasidagi Chjan obrazlarini ham yaratadi.

Aktrisaning ijodida Regana roli yangi dunyoqarash, yangi tuyg'ular, sezgilar olami edi. Regana – bu makkor, zolim ayol, hokimiyatga, boylikka, hukmdorlikka o'chligi tufayli u hech narsadan qaytmaydi. Bu ko'rimsiz odmigina kiyingan ayolning har bir qadami, xatti-harakati, nigohi ko'z o'ngimizda kuchli xarakterli inson turganligidan dalolat beradi. O'tkir aql va zolimlik, riyokorlik va makr, qat'iylik va qo'rqqoqlik singari xususiyatlar bu ayolga xosligini aktrisa alohida ta'kidlaydi.

“Mariya Styuard”dagi Mariya – Yayra o'zining kuchiga, opasi Yelizavetadan har tomonlama ustunligiga ishongan va erkinlikka to'la haqli ekanligini bilgan asira. Shuning uchun ham u o'zini mag'lub bo'lgan qurbon emas, o'z haqi, haqiqati uchun kurashuvchi deb biladi. Yayraning Mariyasi jo'shqin qalbli, ammo chidamli. Aktrisa yaratayotgan qahramonining ichki boyligini va xarakteridagi ijobiy fazilatlarini qatori yaratayotgan obrazning tashqi go'zalligini, yoqimlilikini ham bo'rttirib ifodalaydi.

Aktrisa ushbu roli bilan Shillerning romantik qahramonlariga xos g‘oyalarni ifodalash bilan birga qahramonining ichki his-tuyg‘ularini, chuqur ruhiy kechinmalarini, qayg‘usini ifodalay oldi. Qolaversa, ijroda romantik orzu-havaslarining fojaviyligi ham aks etdi. Mariya obrazida Yayra Abdullayeva ijroda ichki va tashqi tasviriy vositalarning uyg‘unligiga erishib, erksevar qahramonning orzu-umidlarini o‘z zamondoshlariga yaqin qila oldi.

Aktrisa o‘ziga topshirilgan ushoq rollariga ham ma’suliyat bilan yondashib, imkoni boricha qiziqarli, ajoyib topilmalar qo‘shishga, har xil sahna vositalari va o‘zining boy tajribasidan foydalanib kichik, lekin o‘ta mazmunli xatti-harakatlar bilan obrazlarni boyitishga intildi. Xususan, O‘.Umarbekovning “Shoshma quyosh”dagi Fotima (1978), A.Ostrovskiyning “Har to‘kida bir ayb” komediyasidagi Mamayeva (1981), Gogolning “Revizor” komediyasidagi Xlopova (1986) va boshqa obrazlarda bu kabi holatlar ko‘zga tashlanadi.

Aktrisa tomonidan yaratilgan jasur va oliyjanob zamondoshlar (“Istambul fojiasi” E.Vohidov, 1988), To‘xliyeva (“Tergov davom etadi” I.To‘xtayev, 1989), O‘jarova (“Aql mezon” N.Matusovskiy, 1990), Rimma Minglicheva (“Alla” T.Minullin, 1992) obrazlarning har biri o‘ziga xos harorat bilan ijro etildi. Yayra Abdullayeva zamondoshlarining murakkab ruhiy olamini ochib berish asnosida qarama-qarshi kuchlar to‘qnashuvida qolgan ayol qiyofalarini haqqoniy ifodalashga intiladi. Aktrisa o‘z qahramonlari xarakterida nohaqlikka qarshi isyonni keltirib chiqaruvchi ichki menini topish imkoniyatlarini qidiradi.

Alexandro Kassonaning “Daraxtlar tik turib jon beradi” asaridagi Euxenna obrazi umr shomi yaqinlashganda qismatga aylangan fojiasini mardonavor kutib olgan keksa ayol qiyofasi Yayra ijrosida o‘ziga xos mahorat ila talqin topdi. Aktrisa hayot lazzatlariga hamon tashna keksa ayolning farzandlaridan yolg‘iz yodgor nabirasi ko‘rnamaklik qilganda ham irodasi sinmagan, iymonini but saqlab qola olgan, o‘zining haq yo‘liga sodiq holda mardonavor jon taslim etganligini juda ishonarli ifodalay olgan. Aktrisa ijrosida avvalo bolajon buvi, shu bilan birgalikda bilimdon ziyoli ayol gavdalanadi. Qolaversa, u saranjom xonadon bekasi. Eng e’tiborlisi, kiborlarga mansub bo‘lsa-da, oilada iste’molchi emas, yaratuvchi, pazanda. Aktrisa ijrosida mana shu aytilgan barcha sifatlar nafaqat so‘zlarida, shuningdek xatti-harakatlarida ham ishonarli va ta’sirchan gavdalangan.

Yayra “Boy ila xizmatchi” filmidagi Gulbahor roli bilan o‘zbek kino san’atida 1953-yildan o‘z faoliyatini boshladi. Birin-ketin “Opa-singil Rahmonovalar”, “Stadionda uchrashamiz”, “Hamza”, “Vijdon amri bilan”, “Alpomish”, kabi filmlarda sur’atga tushdi. U qator telespektakl va radiospektakllarda ham qatnashgan. 1960-yili birinchi o‘zbek telefilm – “Azizaxon”da bosh qahramonni gavdalandirgan. Genrix Ibsenning “Qo‘g‘irchoq uy” pyesasini o‘zi radioda postanovka qilgan. U nafaqat badiiy filmlarda, balki teleseriallarda ham rol ijro etgan. “Ayajonlarim” teleloyihasida (2010-

2011 yillar) bosh qahramon – Ziynat buvida vazminlik, mulohazakorlik bilan ish tutish kabi xislatlar mujassamligi bilan o‘zbek onalarining umumlashma obrazini yaratdi.

Yayra Abdullayeva 2019-yil 14-mayda Toshkentda vafot etdi. U san’atdagi faoliyati davomida O‘zbekiston xalq artisti (1964), Respublika Davlat mukofoti (1967), Do‘stlik (1998), El-yurt hurmati (2011) ordenlari sohibi bo‘lgan.

Yayraga nafaqat katta mahorat, iste’dod, ko‘rkamlik, shu bilan birga jo‘shqin qalb, mehri yurak ato etilgan. Shunga qo‘shimcha qilib yana aytish joizki, u mushohadakor san’atkor ham. U obrazni ijro etishga kirishar ekan, rol orqali ko‘zlangan maqsadni anglashda atrofdagilardan ancha ilgarilab ketadi. Qolaversa, jo‘shqinlik, o‘zigagina xos nazokat va his-hayajonning mo‘lligi Yayra Abdullayevani boshqalardan ajratib turadi. Demak, katta iste’dod, yorqin tashqi qiyofa, sahnabop joziba, ichki jo‘shqinlik, mehnatsevarlik, bilimga tashnalik, zakovat – Yayra Abdullayevaning yorqin san’atkor-aktyor-shaxs sifatida shakllanishiga imkoniyat yaratgan omillardir. Shular tufayli Yayra Abdullayeva o‘zbek teatrining eng sevimli aktrisalaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Yayra Abdullayeva sahnada namoyon etgan qahramonlari yoshidan qat’iy nazar, tomoshabinga o‘rnak bo‘la oladi. Bu esa aktrisa ijro mahoratining nafaqat yuksakligidan, balki aktyor sifatida jamiyat oldidagi ma’naviy ma’suliyatini to‘g‘ri anglaganidan ham. Zero, san’atning jamiyat oldidagi vazifasi ham ma’naviyatga ta’sir etish orqali ommani tarbiyalashdir. Buni aktrisa qalban to‘g‘ri his etadi va shu sabab u yaratgan har bir obraz, xoh u ijobiy, xoh salbiy bo‘lsin, tomoshabinni tarbiyalashga, uni salbiy sifatlardan holi etishga, asosiysi, ma’nan yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilfuza Rahmatullayeva “San’atga baxshida umr”
2. T.Bayandiyev, M.Axmadjonova “Asrga tengdosh teatr”